



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XIZMATLAR SOHASINING MILLIY
IQTISODYOTDA TUTGAN O'RNI, AHAMIYATI, UNING IQTISODIY TAHLILI VA UNI
TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

PhD, dots. **Ernazarov Gulam**

Toshkent texnologiya, menejment va kommunikatsiya instituti

ORCID: 0009-0001-1596-4393

gulomernazarovgb@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada xizmatlar sohasining o'ziga xos ahamiyati, o'rni, mohiyati va xizmatlar sohasining o'ziga xos xususiyatlari muallif tomonidan ko'rib chiqilgan. Xizmatlar sohasining iqtisodiyotdagi roli va ahamiyati ochib berilgan va uning statistik tahlili qilingan hamda muallif tomonidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: xizmatlar, xizmat ko'rsatish, aholiga sifatli xizmat ko'rsatish, konsalting xizmatlari, uy-joy kommunal xo'jaligi, aholi turmush sharoiti, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar.

**МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ СЕКТОРА УСЛУГ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН, ЕГО ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И ПУТИ ЕГО
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ**

PhD, доц. **Эрназаров Гулам**

Ташкентский институт технологий,
менеджмента и коммуникаций

Аннотация. В данной статье автор исследует специфическое значение, роль, сущность и особенности сектора услуг. Раскрывается роль и значение сектора услуг в экономике, проводится его статистический анализ, и автор разрабатывает предложения и рекомендации.

Ключевые слова: сфера услуг, качественное обслуживание населения, консультационные услуги, жилищно-коммунальное хозяйство, условия жизни населения, здравоохранение и социальные услуги, услуги на душу населения.

**THE PLACE AND IMPORTANCE OF THE SERVICE SECTOR IN THE NATIONAL
ECONOMY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN, ITS ECONOMIC ANALYSIS AND WAYS
OF ITS IMPROVEMENT**

PhD, assoc. prof. **Ernazarov Gulam**

Tashkent Institute of Technology,
Management and Communications

Abstract. In this article, the author explores the specific significance, role, nature, and characteristics of the service sector. The role and significance of the service sector in the economy are explored, a statistical analysis is conducted, and the author develops proposals and recommendations.

Keywords: service sector, quality public service, consulting services, housing and communal services, living conditions of the population, healthcare and social services, services per capita.

Kirish.

Mamlakatimizda xizmatlar sohaning rivojlanishi, bu iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ham multiplikativ ta'sir ko'rsatadi. Masalan, moliya, sug'urtalash xizmatlariga talabning 1 million so'mga o'sishi iqtisodiyotda qo'shimcha 3,2 million so'm qiymat yaratadi. Xuddi shunday katta multiplikativ ta'sirga ega bo'lgan sohalar qatoriga konsalting xizmatlari, yashash va umumiy ovqatlanish, turizm, ta'lim, sog'liqni saqlash va kommunal xizmatlarni kiritisa bo'ladi.

O'zbekistonda iqtisodiyotning barcha sohaları kabi xizmatlar sohasining ahamiyati juda katta va dolzarbdır. Shunday ekan, bu, eng avvalo ishlab chiqarishning murakkablashishi, bozorning tovarlar bilan to'yinganligi, jamiyat hayotiga yangiliklar kirituvchi fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq. Bularning barchasi axborot, moliyaviy, transport, konsalting xizmatlari va boshqa turdagi xizmatlar mavjudligini taqozo etadi. Bu borada ***O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 27 fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-78-sonli qarorining*** (2025) qabul qilinishi sohaning milliy iqtisodiyotimizda tutgan o'rni va ahamiyati nihoyatda muhimligini ko'rsatib bermoqda.

2022–2026-yillarda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida xizmatlar sohasini rivojlantirish borasida aniq chora-tadbirlar belgilanib, bunda «....arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-transport, muhandislik – kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ... » (Farmon, 2023) yuzasidan muhim vazifalar belgilab olindi. Strategiyada belgilab berilgan ustuvor vazifalardan kelib chiqqan holda, bugungi kunda mamlakatimizda xizmatlar sohasining ahamiyatini oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Mavzu yuzasidan mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot va izlanishlar olib borishgan va borishmoqda, ular mazkur sohani rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shishmoqda.

Neoklassik maktab vakili Alfred Marshall (1993) xizmatlar to'g'risida ancha dadil va shu bilan bir qatorda, mantiqan asoslangan fikrlarni maydonga tashlagan va xizmat ko'rsatish sohasining nazariy asoslarini shakllantirishda o'zining munosib hissasini qo'shgan. U xizmatlarni mehnatning nomoddiy, sezgi organlari vositasida ilg'ab bo'lmaydigan natijalari sifatida talqin qilgan. Aynan, Marshall (1993) barcha ne'matlarni moddiy va nomoddiy ne'matlarga bo'lar ekan, ularning barchasi mamlakatdagi ijtimoiy boylikni shakllantirishda birday muhim ekanligini isbotlashga alohida e'tibor qaratgan. U birinchi bo'lib, insonning hayot faoliyatida va ehtiyojini qondirishida moddiy noz-ne'matning o'ta muhim va zarur ekanligini e'tirof etish bilan bir qatorda, kuz bilan ilg'ab bo'lmaydigan turli nomoddiy noz-ne'matlar va xizmatlarning ham katta ahamiyati bopligini ilmiy jihatdan asoslab berdi (Marshall, 1993).

Barinovning (2020) bergan ta'rifiga kura: "xizmat – bu mahsulotning foydali harakati yoki insonning o'ziga xos, oqilona ehtiyojlarini qondirish uchun faoliyat shaklida namoyon bo'ladigan, foydalanish qiymatlarini yaratadigan mehnat natijalari bo'yicha paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlardir". Shuning uchun xizmat ko'rsatish jarayoni iste'molchilarga xizmatlarni yetkazib berish jarayoni, ya'ni unga har qanday shakldagi jismoniy va yuridik shaxslarning ehtiyojlarini qondirish jarayoni sifatida qaralishi kerak.

Kastels (2000) iqtisodiyotining axborot va axborotlashtirish bilan bog'lik xususiyatlariga e'tibor berib, xizmatlarni yangicha tavsifga egaligi va xizmatlarni ko'rsatishda faoliyatning yangi ko'rinishlarini tadqiq etgan. Uning fikricha, xizmatlar kategoriyasi tarixan turli xil ijtimoiy tuzilmalar va ishlab chiqarish tizimlaridan shakllanib kelayotgan faoliyatni o'z ichiga oladi. Xizmat ko'rsatish sohasida rang-barang faoliyat turlarini biriktirib turuvchi yagona belgi ushbu yagona (umumiy) belgining yo'qligidir. Xizmatlarni ularga tegishli bo'lgan ichki xususiyatlardan kelib chiqib aniqlashda shuni aytish kerakki, axborot iqtisodiyotining

rivojlanishi bilan tovarlarning “nomoddiylik” va «moddiylik» o‘rtasida mazmunan farqi yo‘qoldi deb izoh beradi.

Meleshko (2016) ilmiy maqolasida “XX asr oxiri – XXI asr boshlari iqtisodiyotidagi eng yorqin tendensiyalardan biri xizmat ko‘rsatish sohasining yuqori suratlarda rivojlanishi hisoblanadi. Sanoat ishlab chiqarishi – asosi 18-asrning oxiridan boshlab mamlakatlarning muvaffaqiyatli iqtisodiy rivojlanishi o‘z o‘rnini xizmat ko‘rsatish sohasiga bo‘shatib berdi, shu sababli jahon iqtisodiyotida sanoat inqilobi bilan taqqoslanadigan tarkibiy qayta qurish sodir bo‘ldi. Bugungi kunda xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanish darajasi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining mezoniga aylandi” deb, ta‘rif berib o‘tadi.

Burmenkoning (2007) bergan ta‘rifiga ko‘ra: «xizmat – bu mahsulotning foydali harakati yoki insonning o‘ziga xos, oqilona ehtiyojlarini qondirish uchun faoliyat shaklida namoyon bo‘ladigan, foydalanish qiymatlarini yaratadigan mehnat natijalari bo‘yicha paydo bo‘ladigan iqtisodiy munosabatlardir». Shuning uchun xizmat ko‘rsatish jarayoni iste‘molchilarga xizmatlarni yetkazib berish jarayoni, ya‘ni unga har qanday shakldagi jismoniy va yuridik shaxslarning ehtiyojlarini qondirish jarayoni sifatida qaralishi kerak.

Botirova (2017) ilmiy ishida xizmat ko‘rsatish sohasining o‘sish sur‘atlari, yangi paydo bo‘lgan xizmat turlari, bozor hamda iste‘molchilar ehtiyojlariga moslashishi, aholi turmush farovonligini oshirishdagi ahamiyati to‘g‘risida o‘z fikrlarini bildirib o‘tgan.

Muhammedov (2009) xizmat ko‘rsatish sohasi aholining sog‘lig‘iga, kayfiyatiga, mehnatga munosabatiga, ishchi-xodimlarning mehnat unumdorligiga, o‘z hayotidan rozilik darajasi va xursandligiga, umuman, ishlab chiqarish kuchlarining hayoti va taraqqiyotiga bevosita va sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatadi deb, ta‘kidlab o‘tadi.

Ernazarov (2024) “Yangi O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanish davrida xizmat ko‘rsatish sohasining o‘rni va ahamiyati, uning iqtisodiy-statistik tahlili va istiqbollari” deb nomlangan maqolasida mamlakatimizda xizmatlar sohaning rivojlanishi, bu iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ham multiplikativ ta‘sir ko‘rsatadi. Masalan, moliya, sug‘urtalash xizmatlariga talabning 1 million so‘mga o‘sishi iqtisodiyotda qo‘shimcha 3,2 million so‘m qiymat yaratadi. Xuddi shunday katta multiplikativ ta‘sirga ega bo‘lgan sohalar qatoriga konsalting xizmatlari, yashash va umumiy ovqatlanish, turizm, ta‘lim, sog‘liqni saqlash va kommunal xizmatlarni kiritsa bo‘ladi, deb, ta‘kidlab o‘tadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqolani yoritishda statistik kuzatuv, mantiqiy yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil, analitik tahlil va qiyosiy statistik tahlil usullardan atroflicha foydalanildi. Ma‘lumotlar qiyosiy tahlil qilinib, xizmatlar sohasining istiqbollari, iqtisodiy ko‘rsatkichlari, xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishi va sohadagi muammolar o‘rganilib, ular nazariy jihatdan yoritib berishga harakat qilindi. Tadqiqot ishimizda xizmat ko‘rsatish sohasi va uning asosiy turlari bo‘yicha ko‘rsatkichlari statistik tahlil qilindi. Tadqiqot obyektida xizmat ko‘rsatish sohasi o‘rganildi.


Tahlillar va natijalar muhokamasi.

Biz bilamizki xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko‘rsatishni o‘z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste‘mol xizmatlarini ko‘rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

Shunday ekan bugungi zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasi aholining barcha qatlamlarini keng qamrab oladi va jamiyatda sodir bo‘layotgan deyarli barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta‘sir ko‘rsatadi, bu esa mazkur masalaning qanchalik muhim va ahamiyatli ekanligini ko‘rsatib beradi.

2025-yil yanvar-fevral oylarida dastlabki ma‘lumotlar bo‘yicha, norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo‘yicha o‘tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda,

bozor xizmatlari hajmi 5 358,4 mlrd. soʻmni tashkil etdi. 2024-yil mos davriga nisbatan oʻsish surʻati 108,5 % ni tashkil etib, uning hajmi esa 876,9 mlrd. soʻmga oʻsishi qayd etildi.



1-rasm. Koʻrsatilgan bozor xizmatlarining oʻsish surʻati dinamikasi

2024-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan (2 211,0 ming soʻm) 2025-yilning mos davrida aholi jon boshiga koʻrsatilgan bozor xizmatlari hajmi 389,5 ming soʻmga yoki 6,8 % ga oʻsib, 2 600,5 ming soʻmni tashkil etgan.

2025-yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan koʻrsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3 774,0 mlrd. soʻmni yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining 70,4 % ini, jumladan, 37,5 % ini kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etdi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi “Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida” PQ-78-son qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat koʻrsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada qoʻllab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish boʻyicha maqsadli parametrlari belgilangan.


Koʻrsatilgan bozor xizmatlari (jadval-2) umumiy hajmining oʻsishida yashash va ovqatlanish xizmatlari 9,4 % ga (oʻsishiga hisyasi 2,4 band), transport xizmatlari 12,6 % ga (oʻsishiga hisyasi 2,3 band), savdo xizmatlari 8,3 % ga (oʻsishiga hisyasi 1,7 band), moliyaviy xizmatlar 2,9 % ga (koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining oʻsishiga hisyasi 0,5 bandni tashkil etdi), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 16,1 % ga (oʻsishiga qoʻshgan hisyasi 0,4 band) va taʼlim xizmatlar 1,4 % ga (oʻsishiga hisyasi 0,1 band) asosiy omili boʻlib hisoblanadi.

2025-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha koʻrsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari 26,1 %, transport va savdo xizmatlari 19,4 %, moliyaviy xizmatlar 13,4 %, taʼlim sohasidagi xizmatlar 3,8 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari esa 3,5 % ulushini tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari
(yanvar-fevral)

	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'ati, %
	2024-y.	2025-y.	
Xizmatlar – jami	4 481,5	5 358,4	108,5
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	152,1	189,9	116,1
moliyaviy xizmatlar	676,9	719,9	102,9
transport xizmatlari	821,8	1 038,3	112,6
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>760,9</i>	<i>949,3</i>	<i>111,1</i>
yashash va ovqatlanish xizmatlari	1 127,6	1 400,9	109,4
savdo xizmatlari	918,4	1 036,9	108,3
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	70,9	84,5	110,3
ta'lim sohasidagi xizmatlar	176,1	206,1	101,4
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	84,0	99,4	106,5
ijara xizmatlari	75,6	99,2	103,2
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	95,7	117,3	112,8
shaxsiy xizmatlar	93,0	119,4	107,9
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	29,2	42,7	114,8
boshqa xizmatlar	160,2	203,9	107,0


Taqqoslash uchun: 2024-yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiy hajmida yashash va ovqatlanish xizmatlari 25,2 foiz, savdo xizmatlari 20,5 foiz, transport xizmatlari 18,3 foiz, moliyaviy xizmatlar 18,3 foiz, ta'lim sohasidagi xizmatlar 3,9 foiz, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari esa 3,4 foiz ulushni tashkil etgan.



2-rasm. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining asosiy turlari bo'yicha tarkibi
(2025- yil yanvar-fevral, %)

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmining o'sishiga telekommunikatsiya xizmatlarining o'sishi ta'sir ko'rsatdi. 2025-yilning tahlil qilinayotgan davrida ushbu turdagi xizmatlarning aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 78,9 foizni tashkil etdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan esa 16,5 foizga o'sgan.

2025- yilning yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarda o'sish kuzatildi. 2024- yilning mos davriga nisbatan hajmi 48,5 mlrd. so'mga yoki 4,1 foizga o'sishi kuzatildi.



3-rasm. Telekommunikatsiya xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi

2025-yilning tahlil qilinayotgan davrida transport sohasida omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlari (135,0 %), pochta va kuryerlik (108,2 %) xizmatlarida yuqori o'sish sur'ati qayd etildi. Havo transporti xizmatlarining o'sishiga xalqaro va ichki turizmning rivojlanishi, parvozlar sonining ortishi, shuningdek, ko'plab mamlakatlar uchun vizasiz rejimning joriy etilishi ta'sir ko'rsatdi. Elektron tijoratning rivojlanishi (OZON, Wildberries, AliExpress, mahalliy bozorlarda onlayn xaridlarning ko'payishi), Express24, MyTaxi Delivery, Yandex Go, Uzum Tezkor va boshqa xususiy tashkilotlarning paydo bo'lishi, logistika infratuzilmasining takomillashtirilgani pochta va kuryerlik xizmatlariga bo'lgan talabni oshishiga turtki bo'ldi. Aeroportlarni modernizatsiya qilish imkoniyatini oshirish va yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga imkon beradi, bu esa o'z navbatida omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda yashash va ovqatlanish xizmatlarining rivojlanishi sezilarli o'sishni ko'rsatmoqda, bu sayyohlar oqimining ko'payishi, ishbilarmonlik aloqalarining kengayishi va mamlakatda infratuzilmaning yaxshilanishi bilan keskin bog'liqdir. Ushbu xizmatlarning o'sishiga oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar hajmining oshishi ta'sir ko'rsatdi, yashash va ovqatlanish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 96,6 % ni tashkil etdi. 2025-yilning yanvar-fevral oylarida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 108,9 % ni tashkil etdi.

Xizmatlarning har oylik hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslar (kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilaridan tashqari), tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari va notijorat tashkilotlar bo'yicha statistik hisobot (ro'yxat bo'yicha);

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobotlari ma'lumotlariga asosan baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlarining natijalari bo'yicha baholash.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan barcha xizmatlar ko'rsatuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Tahlillarimiz ko'rsatdiki, 2025-yil yanvar-fevral oylarida dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda, bozor xizmatlari hajmi 5 358,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2024-yil mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,5 % ni tashkil etib, uning hajmi esa 876,9 mlrd. so'mga o'sishi qayd etildi.

2024-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan (2 211,0 ming so'm) 2025-yilning mos davrida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 389,5 ming so'mga yoki 6,8 % ga o'sib, 2 600,5 ming so'mni tashkil etgan.

2025-yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3 774,0 mlrd. so'mni yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining 70,4 % ini, jumladan, 37,5 % ini kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etdi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytish lozimki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-78-son qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmi o'sishiga moliyaviy xizmatlarning 23,7 %ga (jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmining mutlaq o'sishiga ta'siri 4,0 foiz band hissa qo'shdi), transport xizmatlarining 12,0 %ga (o'sishiga ta'siri 2,2 foiz bandni), savdo xizmatlarining 11,8 %ga (o'sishiga ta'siri 2,1 foiz bandni), yashash va ovqatlanish xizmatlarining 9,0 %ga (o'sishiga ta'siri 1,9 foiz bandni), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 21,2 %ga (o'sishiga ta'siri 1,4 foiz bandni), boshqa xizmatlarning 12,2 %ga (o'sishiga ta'siri 0,6 foiz bandni), shuningdek, ijara xizmatlari 19,5 %ga va ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning 10,8 %ga (o'sishiga ta'siri 0,3 foiz bandni) o'sishi asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Me'morchilik sohasidagi xizmatlar 15,8 %ga, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar 12,6 %ga, kompyuter va maishiy texnikani ta'mirlash xizmatlari 11,7 %ga, shaxsiy xizmatlar 11,4 %ga va ta'lim sohasida 3,4 %ga o'sib, umumiy ko'rsatilgan xizmatlar hajmining 0,9 foiz bandga o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ushbu qarordan kelib chiqib, 2025 yilda xizmatlar sohasini rivojlantirishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari belgilab olindi:

- xizmatlar hajmini 15 foizga oshirish;
- sohada 3 million kishini daromadli mehnat bilan ta'minlash;
- 52,2 mingta xizmat ko'rsatish obyektlarini tashkil etish.

Prezidentning 2022 yil 27 yanvardagi PQ-104-son qarorida nazarda tutilgan xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlarga 1 foizlik ijtimoiy soliq stavkasining amal qilish muddati 2028 yil 1 yanvargacha uzaytirildi.

2025 yilda sohaga quyidagi miqdorida kredit mablag'lari yo'naltiriladi:

◆ xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun 67,4 trillion so‘m;

◆ xizmat ko‘rsatish obyektlarini tashkil etish uchun developerlar orqali tadbirkorlik subyektlariga noturar joylarni lizingga berishga 4,5 trillion so‘m.

Hududlarda 2025 yilda quyidagi 652 ta drayver loyihalarni infratuzilma bilan ta‘minlash uchun 1 trillion so‘m yo‘naltiriladi:

— 72 ta sohil bo‘yi dam olish maskanlari;

— 62 ta zamonaviy qiyofadagi istirohat bog‘lari;

— 154 ta tun-u kun faoliyat yuritadigan turizm va gastronomik yo‘nalishlarga ixtisoslashgan savdo va ko‘ngilochar ko‘chalar;

— 364 ta yo‘l bo‘yi va boshqa servis obyektlari.

Bu islohotlarning uzviylikini davom ettirish, xususan, xizmat ko‘rsatish sohasini istiqbolda tizimli rivojlantirish va uning sifatini yanada oshirish borasida ushbu qarorda ko‘plab maqsad va vazifalar belgilab berildi.

Adabiyotlar / Литература / Reference:

Alfped Mapshall. (1993) *Prinsipy ekonomicheskoy nauki*. — M.: «Progress».

Barinov N. A. (2020) *Ukaz. Soch.* - S. 17.

Botirova R., Ikromov I. (2017) *Hududlarda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning dolzarb yo‘nalishlari*. №11(119). <http://www.biznesdaily.uz>

Bupmenko T.D. (2007) *Sfepa uslug: ekonomika: uchebnoe posobie* / T.D. Bupmenko, N.N. Danilenko, T.A. Tupenko; pod ped. T.D. Bupmenko. —M.: KNOPUS, — 328 s. — S. 64-65.

Ernazarov G.B. (2024) “Yangi O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanish davrida xizmat ko‘rsatish sohasining o‘rni va ahamiyati, uning iqtisodiy-statistik tahlili va istiqbollari” maqola TDIU: *Iqtisodiyot va ta‘lim jurnali* №1-soni.

Farmon (2022) *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022—2026 yillarda Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni*. // www.lex.uz

Farmon (2023) *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mipziyoevning 2023 yil 11 sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni*. // www.lex.uz

Kastels M. (2000) *Infopmacionnaya epoxa: Ekonomika, obuestvo i kultupa: Pep. s angl.*

Pod. ped. O.I. Shkapatana —M.: GUVShE.

Meleshko Yu.V. (2016) «Transformatsiya opredeleniya ponyatiya «uslug» v kontekste konsepsii postindustrialnogo obuestva” // *Rossiya: Internet-jurnal “Ekonomicheskaya nauka segodnya”* №4.

Mirziyoev Sh.M. (2025) *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 26 dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi*. // www.lex.uz.

Muhammedov M.M. (2009) “Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish — ustuvor masala”. *Servis jur.* №1, - 47-56 b.

Qaror (2021) *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 11 maydagi “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5113-sonli qarori*. // <https://lex.uz/ru/docs/5421233>.

Qaror (2022) *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 27 yanvardagi “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-104-sonli qarori*. // <https://lex.uz/docs/5840284>.

Qaror (2025) *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 27 fevraldagi “Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-78-sonli Qarori*. // www.lex.uz.